



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO‘YXATIDAN O‘TKAZILDI
RO‘YXAT RAQAMI: 3416-1
2025 - yil 16 - Aprel

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGINING
QARORI

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi
nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PF-99-son “Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-dekabrda 833-son “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyati hamda “Ayollar daftari” bilan ishlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 30-son, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022-yil 21-dekabrda 35-2022/qq-son va Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrda 71-son qarori (ro‘yxat raqami 3416, 2023-yil 16-yanvar) (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 17.01.2023-y., 10/23/3416/0032-son) bilan tasdiqlangan Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir
02-Aprel 2025-yil
4-son



XUDAYAROV ASILBEK
ANVAROVICH

Vazir
27-Mart 2025-yil
244-son



KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

Vazir
24-Mart 2025-yil
2-q/q-son



ZAXIDOV BOTIR
ERKINOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining
2025-yil 2-apreldagi 4-son, Iqtisodiyot va moliya vazirligining
2025-yil 27-martdagi 244-son hamda Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirligining 2025 yil 24-martdagi 2-q/q-son qaroriga
ILOVA

**Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi
to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. 9-bandning to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan, tibbiyot muassasalarining barcha xodimlariga kasbiy va boshqa bayramlar munosabati bilan beriladigan mukofot pullari va moddiy yordam pullari.”.

2. 24-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“24. Jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Ichki audit departamenti, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.”.